

ISSN 2181-9505  
Doi Journal 10.26739/2181-9505

# Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2025 № 3-4 (30-31)



ISSN 2181-9505  
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi  
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари  
при Кабинете Министров Республики Узбекистан  
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers  
of the Republic of Uzbekistan  
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT  
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE  
INTERNATIONAL JOURNAL**

**2025 № 3-4 (30-31)**

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.  
Журнал выходит 4 раза в год.  
The journal is published 4 times in a year.



**Toshkent**

**“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal**  
**“Философия и жизнь” международный журнал**  
**“Philosophy and Life” International journal**


|   |  |
|---|--|
| <p><b>Tahrir kengashi</b><br/> <b>Abdildina, R.J.</b> - Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor<br/> <b>Mamedzade, I.R.</b> - Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor<br/> <b>Skarantino, L.M.</b> - Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya)<br/> <b>Smirnov, A.V.</b> - Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya FA prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya)<br/> <b>Seytaxmedova N.L.</b> - Qozog'iston FA muxbir a'zosi, f.f.d., professor<br/> <b>Tsuy Veyxan</b> - Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy)<br/> <b>Chumakov, A.N.</b> - Rossiya FA Falsafa institute professori, f.f.d., (Rossiya)</p> <p><b>Muassislar:</b><br/>         Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti<br/>         O'z.RV M huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi<br/>         O'zbekiston falsafa jamiyati<br/>         Expert lawyers МЧЖ Elc.uz</p> <p style="text-align: center;"><b>Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.</b></p> | <p><b>Bosh muharrir:</b><br/> <b>Shermuhamedova, N.A.</b> - f.f.d., professor (O'zbekiston)<br/> <b>Bosh muharrir o'rinbosari:</b><br/> <b>Aslanova R.</b> - f.f.d., professor (Azarbayjon)<br/> <b>Mas'ul muharrir:</b><br/> <b>Muhamedova Z.M.</b> – f.f.d., prof. (O'zbekiston)<br/> <b>Tahrir hay'ati:</b><br/> <b>Allahyarova, T.</b>, - f.f.d., professor (Azarbayjon)<br/> <b>Andirjanova, G.A.</b>, - s.f.d., professor (Qozog'iston)<br/> <b>Abasov, A.S.</b> - f.f.d., professor (Azarbayjon)<br/> <b>Buzarinejad, Y.</b> - PhD, dotsent, Tehron universiteti Alborz fakulteti dekani; (Eron)<br/> <b>B.K. Santosh Kukreja</b>, - DS professor (Hindiston)<br/> <b>Bilalov, M.I.</b>, - f.f.d., professor (Rossiya)<br/> <b>Gabitov, T.X.</b>, - f.f.d., professor (Qozog'iston)<br/> <b>Kerimov E.</b> - f.f.d., professor (Azarbayjon)<br/> <b>Gezalov, A.A.</b>, - f.f.n., professor (Rossiya)<br/> <b>Olatunji Feliks</b> – PhD, dotsent (Nigeriya)<br/> <b>Pardayev S.P.</b> – falsafa doctori PhD, (O'zbekiston)<br/> <b>Tulenova G. J</b> - f.f.d., professor (O'zbekiston)<br/> <b>Tesdelen, Vefa</b>, - f.f.d., professor (Turkiya)<br/> <b>To'rayev, B.O.</b>, - f.f.d., professor (O'zbekiston)<br/> <b>Tyukmaeva A.M.</b> – falsafa doctori PhD (O'zbekiston)<br/> <b>Kurmangalieva, G. K.</b>, - f.f.d., professor (Qozog'iston)<br/> <b>Qurbonova L.A.</b> – DSc, dotsent (O'zbekiston)<br/> <b>Xudoydodzoda F.B.</b>, - f.f.d., professor (Tojikiston)<br/> <b>Hakimov N. H.</b> – f.f.d., professor (O'zbekiston)<br/> <b>Xudoyberganov R.</b> – DSc, dotsent (O'zbekiston)<br/> <b>Mahmadizoda N.</b> – f.f.d., professor (Tojikiston)<br/> <b>Naushabaeva, A. Hakimoglu</b> - PhD filos., professor (Turkiya)<br/> <b>Paxruddinov, Sh.I.</b>- s.f.d., professor (O'zbekiston)<br/> <b>Sergeev, M.Y.</b>, - professor (AQSH)<br/> <b>Sagikizi A.</b>- f.f.d., professor (Qozog'iston)<br/> <b>Urmanbetova, J.K.</b>, - f.f.d., professor (Qirg'iziston)<br/> <b>Chjan Baychun</b>, - f.f.d., professor (Xitoy)<br/> <b>Shadmonov, Q.</b>, - f.f.d., professor (O'zbekiston)<br/> <b>Sharipova E.K.</b> – f.f.d., professor (Qirg'iziston)<br/> <b>Ilmiy kotib:</b><br/> <b>Xidirov, M.T.</b> – falsafa doctori PhD, dotsent (O'zbekiston)<br/> <b>Musahhihlar:</b><br/> <b>Qodirov J.</b> (O'zbekiston)<br/> <b>Po'latov A.</b> (O'zbekiston)</p> |
|---|--|

**MUNDARIJA**  
**SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI**

|  |  |         |
|--|--|---------|
| <b>Inaqov Qudratjon Qadirjanovich</b>      | RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIIY ONG DINAMIKASI   | 9-19    |
| <b>Qosimova Nazira Omurqulovna</b>         | GARMONIYA VA HAMKORLIK: DIPLOMATIYANING AYOLLAR O‘LCHOVI   | 20-30   |
| <b>Rasulov Rustambek Odilovich</b>         | AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SIYOSIIY MAFKURALAR TARG‘IBOT METODOLOGIYALARINING O‘ZGARUVCHALIGI  | 31-37   |
| <b>Shayildayeva Asel Kokoyevna</b>         | XALQ DIPLOMATIYASIDA AYOLLAR YETAKCHILIGI: MAS‘ULIYAT VA G‘AMXO‘RLIK FALSAFASI TA‘LIM VA FAN FALSAFASI   | 38-45   |
| <b>Qurbonova Lolaxon Abduxadimovna</b>     | ELITAR TA‘LIM MODELLARIGA SUN‘IY INTELLEKTNING INTELLEKTUAL VA MA‘NAVIY TA‘SIRI  | 46-53   |
| <b>Xaydarova Aqida Xurramovna</b>          | TANLANISH MEXANIZMI VA EPISTEMOLOGIK RATSIOANALLIK DIALEKTIKASI  | 54-60   |
| <b>Usmonov Muxriddin Abdimuradovich</b>    | IDROKNING TAFAKKUR USLUBINING ONTOLOGIK POYDEVORI SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING ONG - BORLIQ O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TUSHUNISHDAGI AHAMIYATI       | 61-75   |
| <b>Shermuhamedova Niginaxon Arslonovna</b> | SINERGETIK VA DIALEKTIK TAFAKKUR VA ULARNING MURAKKAB TIZIMLARNING RIVOJLANISHINI TUSHUNISHDA ROLI <b>FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI</b>          | 76-85   |
| <b>Pardayev Sultonmurod</b>                | DUNYONING ILMIY MANZARASI EVOLYUTSIYASINING KLASSIK, NOKLASSIK VA POSTNOKLASSIK DAVRLARI VA ULARNING O‘ZARO TA‘SIRI                                  | 86-96   |
| <b>Qodirov Javlonbek Abdusattor o‘g‘li</b> | ZAMONAVIIY FALSAFADA ONGGA OID POSTMODERN VA NEYROFALSAFA SOHALARIDAGI QARASHLAR DINAMIKASI  | 97-104  |
| <b>Sapayev Valisher Odilbek o‘g‘li</b>     | SUN‘IY INTELLEKT FENOMENINING IJTIMOIIY JARAYONLAR BILAN BOG‘LIQ JIHATLARI VA UNING MAFKURAVIIY AHAMIYATI <b>DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN‘ANALAR</b> | 105-116 |
| <b>Alaje, Olubunmi Oyebola</b>             | FATOU FANNY-CISSÉ‘NING “MADAME LA PRÉSIDENTE” ASARIDA MISTITSIZM, GENDER ASOSIDAGI KUCH VA YETAKCHILIKNING ETNOLINGVISTIK TASVIRI                    | 117-132 |
| <b>Qudratov Siroj Xolmatovich</b>          | MILLIY VA GLOBAL TAJRIBALAR ASOSIDA YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI   | 133-145 |

**FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI**  
**ИСТОРИЯ ФИЛОСОФИИ И ФИЛОСОФИЯ ИСТОРИИ**  
**HISTORY OF PHILOSOPHY AND PHILOSOPHY OF HISTORY**

**UDK:** 001.1:140.8

 10.5281/zenodo.18734224

**Pardayev Sultonmurod**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston milliy universiteti

Elektron adres: sultonmurod121993@gmail.com

**DUNYONING ILMIY MANZARASI EVOLYUTSIYASINING KLASSIK,  
NOKLASSIK VA POSTNOKLASSIK DAVRLARI VA ULARNING  
O'ZARO TA'SIRI**

**Annotatsiya:** Dunyoning ilmiy manzarasi evolyutsiyasi inson tafakkurining borliqni anglashga bo'lgan munosabati qanday o'zgarib borganini ifodalovchi falsafiy jarayondir. Dastlab, klassik ilmiy manzara tabiatni qat'iy qonunlarga bo'ysunuvchi, inson ongidan mustaqil mavjud bo'lgan yaxlit mexanik tizim sifatida talqin qilib, ilmiy bilishda obyektivlikni mutlaq qadriyat darajasiga ko'targan. Keyinchalik noklassik davrda bilish jarayonida subyektning faol ishtiroki, kuzatuvchining pozitsiyasi va bilish vositalarining natijaga ta'siri e'tirof etilgan hamda ilmiy manzara nisbiylik va ehtimollik asosida qayta shakllangan. Biroq postnoklassik ilmiy manzarada fan tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni hisobga oluvchi ochiq tizim sifatida namoyon bo'lib, ilmning universal va mutlaq haqiqatga erishishi mumkinligi haqidagi qarashlarni shubha ostiga qo'yuvchi destruktiv fikrlar ham paydo bo'lmoqda. Shu bois, ushbu maqolada dunyoning ilmiy manzarasi evolyutsiyasining klassik, noklassik va postnoklassik davrlari va ularning zamonaviy falsafiy tafakkurga ta'siri tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** dunyoning ilmiy manzarasi, klassik fan, noklassik fan, postnoklassik fan, ilmiy ratsionallik, falsafiy tahlil.

**KIRISH**

Fan taraqqiyoti tarixi inson tafakkurining borliqni anglash usullari izchil ravishda o'zgarib borganini ko'rsatadi. Bu jarayon tasodifiy emas, balki muayyan tarixiy sharoitlar, ilmiy kashfiyotlar va falsafiy g'oyalar ta'sirida shakllangan qonuniy evolyutsiyadir. Shu ma'noda, dunyoning ilmiy manzarasi insonning tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni qanday tasavvur qilganini aks ettiruvchi fundamental falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy jihatdan klassik ilmiy manzara Yangi davr fanining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiatni obyektiv, inson ongidan mustaqil va qat'iy qonunlarga

bo'ysunuvchi tizim sifatida talqin qilgan. Bu yondashuv ilmiy bilishda determinizm, sabab-oqibat aloqalarining ustuvorligi va universal haqiqatga erishish mumkinligiga bo'lgan ishonchni mustahkamlagan. Biroq XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ilmiy inqiloblar natijasida mazkur qarashlarning cheklanganligi ayon bo'lib, bilish jarayonida subyekt omilini hisobga olish zarurati vujudga keldi. Mantiqiy izchillik nuqtai nazaridan, noklassik ilmiy manzara klassik fanga zid emas, balki uning ichki ziddiyatlarini bartaraf etishga qaratilgan navbatdagi bosqich sifatida shakllangan. Bu davrda ilmiy bilish natijasi kuzatuvchining pozitsiyasi, qo'llanilayotgan metod va vositalarga bog'liq ekani e'tirof etilgan, hamda nisbiylik va ehtimollik tamoyillari ilmiy manzaraning muhim elementlariga aylangan. Keyinchalik postnoklassik fan doirasida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi murakkab, ochiq va o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizimlar tadqiq etilib, ilmiy bilimning ijtimoiy va qadriyatli jihatlari ham tahlil doirasiga kiritilgan.

Obyektivlik tamoyilidan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu bosqichlar bir-birini inkor etmaydi, balki muayyan tarixiy va mantiqiy izchillikda o'zaro bog'langan holda rivojlanadi. Shu bois dunyoning ilmiy manzarasi evolyutsiyasini klassik, noklassik va postnoklassik davrlar birligida tahlil qilish fan taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini anglash, shuningdek, zamonaviy falsafiy tafakkurning metodologik asoslarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **MATERIALLAR VA METODLAR**

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda dunyoning ilmiy manzarasi evolyutsiyasiga oid klassik, noklassik va postnoklassik yondashuvlarni yoritgan xorijiy, rus, qozoq, turk hamda o'zbek olimlarining fundamental asarlari asosiy manba sifatida tanlangan. Tadqiqot materiallarini falsafa tarixi, fan falsafasi va metodologiyasi sohalarida yaratilgan nazariy konsepsiyalar tashkil etadi. Xorijiy ilmiy an'analarda dunyoning ilmiy manzarasi tushunchasi, avvalo, klassik ratsionallik bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Masalan, T. Kun ilmiy inqiloblar nazariyasi orqali ilmiy manzaraning paradigmal xarakterga egaligini asoslab, fan rivoji izchil emas, balki sifat jihatdan uzilishlar orqali amalga oshirishini asoslagan [Кун, 1962, с.93]. Bu yondashuv noklassik va postnoklassik fanni tushunishda muhim metodologik ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy ilmda mutlaq obyektivlik g'oyasining cheklanganligini ochib beradi. I. Lakatos ilmiy-tadqiqot dasturlari konsepsiyasi orqali klassik va noklassik fan o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, fan taraqqiyotini ichki mantiqiy tuzilmalar orqali tahlil qilish imkonini asoslagan [Лакатос, 1970, с.132]. Bu g'oya hozirgi davrda fanning barqarorlik va innovatsiya o'rtasidagi muvozanatini tushunishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Rus falsafiy maktabida esa dunyoning ilmiy manzarasi muammosi chuqur metodologik tahlil qilingan. V. S. Styopin klassik, noklassik va postnoklassik fan turlarini farqlab, har bir bosqichda ratsionallik tiplarining o'zgarishini tahlil etgan [Стёпин, 2000, с.45]. Uning fikricha, postnoklassik fan inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi murakkab tizimlarni tadqiq qilishga yo'nalgan bo'lib, bu holat fanning ijtimoiy mas'uliyati masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Ushbu yondashuv bugungi kunda texnogen sivilizatsiya sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Qozoq olimlaridan M. S. Orinbekov fan va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, ilmiy manzaraning milliy-madaniy omillar bilan aloqadorligini asoslagan [Orinbekov, 2010, c.78]. Bu fikr postnoklassik fan doirasida ilmiy bilimning qadriyatli tabiatiga e'tibor qaratish zarurligini namoyon etadi. Turk falsafasida I. Kuchuradi ilmiy bilishning axloqiy o'lchamlarini tahlil qilib, fanni insonparvarlik qadriyatlaridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlagan [Kuchuradi, 1998, c.56.]. Mazkur yondashuv postnoklassik ilmiy manzarada fan va insoniy mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek olimlaridan N. Shermuxamedova fan falsafasi doirasida ilmiy manzaraning tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilib, klassik va noklassik fan o'rtasidagi metodologik farqlarni asoslagan [Шермухамедов, 2014, б.64]. Shuningdek, B.To'rayev ilmiy bilishning ijtimoiy asoslarini ochib, postnoklassik fanning milliy taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'unligini asoslagan [Б, Тўраев, 2022, б.91].

Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik va obyektivlik tamoyillariga tayanilgan holda qiyosiy-tahliliy, tizimli va germeneytik metodlar qo'llanildi. Bu metodlar orqali turli ilmiy maktab va an'analarda shakllangan yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning zamonaviy falsafiy tafakkurdagi ahamiyati ochib berildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Dunyoning ilmiy manzarasi tushunchasi fan falsafasida bilishning umumiy nazariy modeli sifatida shakllanib, muayyan tarixiy davrda fan qanday tarzda borliqni anglaganini ifodalaydigan fundamental kategoriya hisoblanadi. V.S.Styopin ilmiy manzarani «fan doirasida shakllangan borliq haqidagi umumlashgan tasavvurlar tizimi» sifatida ta'riflab, uni alohida fan natijalarining mexanik yig'indisi emas, balki muayyan ratsionallik tipiga tayanuvchi yaxlit dunyoqarash sifatida talqin qilgan [Стёпин, 2000, с.37]. Mazkur ta'rif ilmiy manzaraning mazmuni faqat tabiat haqidagi bilimlar bilan cheklanmasdan, bilish usullari, metodologik tamoyillar va ilmiy ideallarni ham o'z ichiga olishini namoyon etadi.

Klassik ilmiy manzarada ushbu kategoriya tabiatni inson ongidan mustaqil, qat'iy qonunlarga bo'ysunuvchi va to'liq bilish mumkin bo'lgan obyekt sifatida ifodalagan. Bu holat ilmiy bilishda obyektivlik, determinizm va universal qonunlar mezon sifatida qaror topishiga olib kelgan. Biroq fan taraqqiyoti jarayonida mazkur manzaraning cheklangan jihatlari asta-sekin namoyon bo'la boshlagan va ilmiy manzara tushunchasi mazmunining chuqurlashuvi aynan shu ichki ziddiyatlar bilan bog'liqdir.

Noklassik ilmiy manzaraga o'tishga bir qator obyektiv va nazariy omillar ta'sir etgan. Birinchidan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tabiatshunoslik fanlarida amalga oshgan ilmiy inqiloblar, xususan, kvant mexanikasi va nisbiylik nazariyasi klassik determinizm g'oyasining universalligini shubha ostiga qo'ydi. Ikkinchidan, bilish jarayonida kuzatuvchi pozitsiyasining natijaga ta'siri aniqlanib, subyekt va obyekt o'rtasidagi qat'iy chegaralarning shartli ekani ochib berilgan. Uchinchidan, ilmiy tadqiqot vositalarining murakkablashuvi bilimning nisbiy va

modelli xarakterini namoyon qilgan. Bundan tashqari, fan falsafasida epistemologik muammolarning kuchayishi, ya'ni bilish imkoniyatlari va chegaralarini anglashga bo'lgan qiziqish ham noklassik ilmiy manzaraning shakllanishiga zamin yaratgan. T. Kun fan taraqqiyotini paradigmalarni almashinuvi sifatida izohlab, ilmiy manzaraning tarixiy shartlanganligini asoslab bergan [Кун, 1962, c.93]. Bu yondashuv ilmiy bilimning mutlaq emas, balki muayyan nazariy va madaniy jarayonlarga bog'liqligini namoyon etadi.

Ilmiy manzara tushunchasining falsafiy shakllanishi klassik fan doirasida boshlangan bo'lsa-da, uning haqiqiy metodologik ahamiyati noklassik bosqichda to'liq namoyon bo'lgan. Chunki aynan shu bosqichda ilmiy bilishning subyektiv, tarixiy va metodologik o'lchamlari ochilib, dunyoning ilmiy manzarasi dinamik va ochiq tizim sifatida baholangan. Bu esa keyinchalik postnoklassik ilmiy manzaraning shakllanishi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, klassik ilmiy manzara XVII–XVIII asrlarda Yangi davr fani doirasida mexanistik dunyoqarash asosida shakllanib, tabiatni inson ongidan mustaqil, qat'iy qonunlarga bo'ysunuvchi va to'liq bilish mumkin bo'lgan yaxlit tizim sifatida talqin qilgan. Ushbu manzarada obyektivlik, determinizm va universal qonunlar ilmiy bilishning asosiy mezonlari sifatida qaror topgan. I. Nyutonning klassik mexanikasi tabiatdagi barcha harakat va o'zgarishlarni sabab-oqibat aloqalari orqali tushuntirish imkonini berib, klassik fanning metodologik poydevorini yaratgan. Uning fikricha, «tabiat qonunlari tajriba orqali aniqlanadi va mantiqiy isbot vositasida umumlashtiriladi» [Ньютон, 1687, c.112], Klassik ilmiy manzarada bilishning asosiy mezonlari sifatida empirik tajriba va ratsional mantiqiy isbotning ustuvorligi ifodalanadi. Bu yondashuv fanni mifologik va metafizik tasavvurlardan ajratib, uni mustaqil ratsional bilim sohasiga aylantirgan, aynan shu jihat klassik fanning tarixiy ahamiyatini belgilaydi, chunki u ilmiy bilishni qat'iy me'yorlar asosida tashkil etish imkonini bergan.

Shu bilan birga, klassik ilmiy manzarada subyekt va obyekt o'rtasida qat'iy farq o'rnatilib, bilish jarayonida inson omili inkor etilgan. R. Dekart bilishda aqlning mutlaq ustuvorligini asoslab, haqiqiy bilim subyektiv ta'sirlardan xoli bo'lishi lozimligini ta'kidlagan [Декарт, 1644, c.58]. Bu fikr klassik ratsionallikning mohiyatini ochib berib, ilmiy bilishda neytral kuzatuvchi g'oyasini mustahkamlagan. Biroq hozirgi davr nuqtai nazaridan mazkur yondashuvning cheklanganligi ayon bo'lmoqda. Zamonaviy fan falsafasi klassik ilmiy manzaraning subyekt omilini inkor etishi bilish jarayonini to'liq anglashga to'sqinlik qilganini namoyon etadi. V. S. Styopin klassik fanni tahlil qilar ekan, uning asosiy muammosi sifatida «bilish jarayonining tarixiy va madaniy shartlanganligini hisobga olmaslik»ni qayd etadi [Стёпин, 2000, c.49], bu cheklov noklassik va postnoklassik ilmiy manzaralarning shakllanishiga metodologik zarurat bo'lib xizmat qilgan.

Shu ma'noda, klassik ilmiy manzaraning hozirgi davrdagi ahamiyati uning mutlaq namuna ekanligida emas, balki ilmiy bilishning asosiy mezonlarini ratsionallik, isbot va empirik tekshiruvni shakllantirganida namoyon bo'ladi. Zamonaviy fan ushbu merosni saqlab qolgan holda, uni subyekt, qadriyat va

ijtimoiy omillar bilan boyitishi lozim. Aynan shu uyg'unlik fan taraqqiyotining barqarorligi va insonparvar yo'nalishini ta'minlaydi.

XIX asr oxirida, klassik ilmiy manzaradagi deterministik yondashuv tabiatdagi murakkab va noan'anaviy jarayonlarni tushuntirishda qiyinchiliklarga sabab bo'lganka duch keldi. Klassik mexanika asosida har bir jarayon sabab-oqibat qonuni bilan belgilangan deb qaralgan bo'lsa-da, mikroduyodagi jarayonlar bu qat'iylikni rad qilgan. M. Plank kvant gipotezasi orqali energiya diskretligini va mikroduyoda klassik determinizmning cheklanganligini isbotlagan [Планк, 1900, с.56], fanning klassik mezonlari faqat makroduyo jarayonlarini tushuntirishda samarali bo'lib, mikroobyektlar bilan ishlaganda chegarasi borligini namoyon qiladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy bilishda mutlaq aniqlik g'oyasi qayta ko'rib chiqilishi kerakligi ayon bo'ldi. Bu esa klassik ilmiy manzaraning ichki ziddiyati sifatida qaralishi mumkin, ya'ni u zamonaviy fan taraqqiyoti uchun metodologik cheklov yaratgan, lekin shunday cheklovlar ham noklassik ilmiy manzaraning paydo bo'lishiga tarixiy zarurat yaratgan. Shu nuqtai nazardan, M. Plank g'oyalari faqat fizika sohasi uchun emas, balki fan falsafasi va bilish teoriyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu gipoteza bilish jarayonida subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirni qayd etishga imkon bergan, shu bilan klassik obyektivlik tamoyilining cheklanganligini ochgan. Aynan shu qadam noklassik ilmiy manzaraning shakllanishi va fan metodologiyasining kengayishi uchun asos bo'lgan.

Hozirgi davr nuqtai nazaridan, Plankning kvant gipotezasi fan taraqqiyotida nazariy konsepsiyalarning evolyutsiyasi va bilishning tarixiy shartlanganligini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Klassik ilmiy manzaraning ichki ziddiyatlari fan falsafasida metodologik muammolarni anglash va ilmiy bilimni chuqurroq tahlil qilish imkonini bergan. Shu jihatdan, klassik manzara va uning inqirozi noklassik va postnoklassik fanning shakllanishi uchun nazariy asos hisoblanadi.

Noklassik ilmiy manzara XX asr boshlarida shakllanib, asosan Eynshteynning nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi orqali ilmiy bilishning an'anaviy tasavvurlarini qayta ko'rib chiqishga asoslangan. Klassik fan asosan obyektivlik va tabiatning determinizmini urf-odat qilib, ilmiy natijalarning kuzatuvchidan mustaqil bo'lishiga e'tibor qaratgan bo'lsa, noklassik yondashuvda subyekt va kuzatuvchining roli asosiy omillardan biriga aylandi.

Eynshteynning tadqiqotlariga ko'ra, natijaga ta'sir qiluvchi omillardan biri kuzatuvchi pozitsiyasi hisoblanadi [Эйнштейн, 1916, с.89]. Bu yondashuvda ilmiy bilish jarayoni endi faqat obyektiv dalillar to'plamidan iborat emas, balki kuzatuvchi subyektiv tushunchasi, modellashtirish va ehtimollik nazariyalari orqali shakllanadi. Noklassik fan klassik ilmiy manzarani inkor etmaydi, balki uning cheklangan jihatlarini to'ldirib, ilmiy bilimni dinamik va kontekstual jarayonga aylantiradi.

Noklassik manzarada subyektning kuchayishi bir necha falsafiy jihatlarni namoyon etadi, bilishning interaktivligi ilmiy bilim subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasi sifatida ko'rib chiqiladi, ehtimoliylik va nazariy

modellashirishning ahamiyati voqealar determinizmida emas, ehtimoliy tadqiqotlar orqali tahlil qilinadi, obyektivlikning nisbiyligi natijalar kuzatuvchi ta'sirini inobatga olgan holda baho beriladi. Hozirig davrda noklassik manzara murakkab tizimlar tahlili, bioinformatika, moliya modellashirishi, atrof-muhit tahlili kabi sohalarda asosiy nazariy platforma bo'lib xizmat qiladi. Subyektning roli va ijtimoiy jarayonlarning ahamiyati bu sohalarda qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Noklassik fan klassik bilimga nisbatan kuchliroq, dinamik va adaptiv konsepsiyani taqdim etadi. Shu bois tadqiqot jarayonida nazariy modellashirish va subyekt ta'sirini inobatga olish, ilmiy bilimlarni statikdan dinamikqa o'tkazish, qarama-qarshi fenomenlarni tushunish va ularning ehtimoliy natijalarini baholash imkonidir. Bu omillar apostnoklassik fanni rivojlantirish va uni zamonaviy ilm-fan talablariga muvofiqlashtirishni zarur qiladi. T. Kunning paradigmalar konsepsiyasi ([Кун, 1962, с.94] ilmiy bilimni statik dalillar to'plami emas, balki tarixiy va madaniy jarayonda shakllanuvchi omil sifatida tushunish imkonini beradi. Bu yondashuvning asosiy falsafiy jihatlari ilmiy bilimning nisbiyligi va tarixiy sharti – Kun fikricha, har bir ilmiy manzara (paradigma) muayyan vaqt va jamiyat sharoitida shakllanadi, shuning uchun bilim absolyut emas, balki tarixiy shartlangan. Paradigmalar almashinuvida yangi paradigma eskisini to'liq rad etmaydi, balki uning cheklangan yoki noaniq jihatlarni to'ldiradi. Bu falsafiy jihatdan bilimning progressiv tabiati va uning evolyutsiyasiga ishora qilishida namoyon bo'ladi. Fan taraqqiyotida sifat o'zgarishlari – ilmiy taraqqiyot spontan emas, balki qadamma-qadam sifat o'zgarishi orqali rivojlanadi, bu falsafiy jihatdan ilmiy metodologiyaning dinamikligini namoyon etadi. Postnoklassik fanni tushunish asosi paradigmalar konsepsiyasi, yangi fan manzarasida subyekt va jarayonning ahamiyatini o'rganish uchun nazariy platforma yaratadi.

Kunning g'oyalari zamonaviy fan tarmoqlarida, masalan, biotexnologiya, sun'iy intellekt, kompleks tizimlar tahlilida, fan taraqqiyotining tarixiy va ilmiy yondashuvini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy manzara va paradigmalarning almashinuvi subyektning roli, tadqiqot usullari va bilim tuzilishidagi dinamikani falsafiy jihatdan yoritadi.

XX asrning ikkinchi yarmida fan taraqqiyoti yangi bosqichga o'tdi va postnoklassik ilmiy manzara shakllandi. Bu bosqichda fan nazariy bilimni faqat obyektiv va deterministik qonunlar orqali emas, balki murakkab, ochiq va o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizimlar doirasida tahlil qilishga yo'naltirildi. Shu tariqa, postnoklassik ilmiy manzara tabiat, jamiyat va inson faoliyati o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni hisobga oluvchi ochiq tizim sifatida namoyon bo'ldi.

V. S. Styopin bu bosqichda fanning maqsad va metodlarini qayta baholab, uning inson va jamiyatga ta'sirini o'rganishda ilmiy bilish mezonlarini kengaytirishini ta'kidlaydi [Стёпин, 2000, с.112]. Uning fikriga ko'ra, postnoklassik fan sistemalikni, ya'ni obyektlarni faqat alohida elementlar emas, balki ularning o'zaro munosabatlari orqali tahlil qilishni muhim mezon sifatida qo'ydi. Shuningdek, fanlararo tushunchasi shu bosqichda ilmiy bilishning tarmoqlararo uyg'unligini ta'minladi, ya'ni fizika, biologiya, sotsiologiya va axloq

falsafasi sohalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar postnoklassik fanning metodologik asosi bo‘ldi.

Shuningdek, postnoklassik ilmiy manzarada qadriyatli yondashuv muhim ahamiyat kasb etdi. Ya’ni ilm nafaqat dalil va qonunlar yig‘indisi sifatida, balki ijtimoiy, madaniy va axloqiy jarayonlar bilan uyg‘un holda qaralishi lozim. Bu nazariya fanning insonparvarlik qadriyatlarini hisobga olishini ta’minlab, ilmni ijtimoiy jarayonlardan uzoqda qarashdan saqladi. Aynan shu jihat postnoklassik ilmiy manzarani zamonaviy ilmiy falsafa va bilish nazariyasidagi yangi qadamga aylantirgan. Postnoklassik fan ilmiy bilishning metodologik chegaralarini kengaytirib, subyektiv va obyektiv omillarni uyg‘unlashtirgan. U inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning chuqurroq tahlilini ta’minlab, fanning ilmiy, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlaydi. Postnoklassik ilmiy manzara fan taraqqiyotida nazariy evolyusiya va metodologik rivojlanishni belgilaydi va zamonaviy ilmning universal va barqaror asosini yaratadi.

Klassik, noklassik va postnoklassik ilmiy manzaralar fan falsafasida uzviy bog‘liq evolyutsion jarayon sifatida rivojlangan. Bu bosqichlarni alohida qarash o‘rniga, ularni bir butun tizim sifatida tahlil qilish fan taraqqiyoti va bilish jarayonini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Klassik ilmiy manzara tabiatni deterministik qonunlar asosida tushuntirish bilan, ilmiy bilishda obyektivlik va ratsionallikni mustahkamlagan [НЬЮТОН, 1687, с.112]. Biroq, XIX asr oxirida mikrodunyodagi jarayonlar klassik determinizmni cheklay boshlagan va noklassik ilmiy manzaraning shakllanishiga zamin yaratgan [Планк, 1900, с.56]. Bu bosqichda bilishda subyektning roli, nazariy modellarning nisbiyligi va tadqiqot vositalarining ta’siri e’tirof qilingan. Shu bilan noklassik manzara klassik fanning obyektiv mezonlarini e’tibordan chekib, uning metodologik chegaralarini kengaytirgan.

Postnoklassik ilmiy manzara esa XX asrning ikkinchi yarmida fanni ochiq, murakkab va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizimlar asosida tahlil qilishga yo‘naltirdi [Стёпин, 2000, с.112]. Unda tizimlilik, fanlararo metodologiya va qadriyatli yondashuv ilmiy bilish mezonlari sifatida namoyon bo‘lgan. Bu evolyutsion jarayonda har bir bosqich keyingisining metodologik va nazariy asosi sifatida xizmat qilgan, klassik fan fundamental qonunlarni belgilasa, noklassik fan bilishning nisbiy va subyektga bog‘liq jihatlarini ochgan, postnoklassik fan esa fanni tabiat, jamiyat va insonning o‘zaro ta’sirlar tizimi sifatida tushunish imkonini bergan.

N. Shermuxamedova ushbu uch bosqichning bir butun evolyutsion tizim sifatida qaralishi fan falsafasida uzluksizlik va metodologik uyg‘unlikni ta’minlaydi, degan fikrni ilmiy asosda ilgari surgan [Шермухамедова, 2015, б.73]. Bu evolyutsion integratsiya zamonaviy ilmiy tafakkurning barqaror va keng qamrovli metodologik poydevorini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni har bir bosqich o‘z vaqtida fanga yangi bilim va metodologik imkoniyatlar qo‘shib, keyingi bosqichlar uchun zamin yaratadi, shu bilan uzluksiz rivojlanish jarayoni shakllanadi.

Demak klassik, noklassik va postnoklassik ilmiy manzaralar qarshiliklar va ziddiyatlar orqali o‘zaro uzviy bog‘lanib, fan falsafasida bilishning zamonaviy, murakkab va metodologik jihatdan boy konsepsiyasini shakllantiradi. Bu integratsiya ilmiy bilimning faqat dalil va qonunlardan iborat emas, balki tarixiy, subyektiv va ijtimoiy omillar bilan muvofiqlashgan dinamik jarayon ekanini namoyon etadi.

## **XULOSA**

Dunyoning ilmiy manzarasi evolyutsiyasi bu fan falsafasida bilish jarayonining uzluksiz, tarixiy va metodologik rivojlanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Klassik ilmiy manzara XVII–XVIII asrlarda mexanistik dunyoqarash asosida shakllanib, obyektivlik, determinizm va universal qonunlar g‘oyasi orqali fanning metodologik poydevorini yaratgan. Ushbu bosqich fanga tajriba va mantiqiy isbotning ustuvorligini ta‘minlab, ilmiy bilishda ratsionallik mezonlarini mustahkamlagan. Biroq XIX asr oxirida mikrodunyodagi jarayonlar klassik determinizmning cheklanganligini namoyon etgan va shu bilan klassik manzaraning ichki ziddiyatlari ayon bo‘lgan. Bu holat noklassik ilmiy manzaraning paydo bo‘lishi uchun tarixiy zarurat yaratgan.

Noklassik ilmiy manzara bilish jarayonida subyektning faol roli, nazariy modellarning nisbiyligi va tadqiqot vositalarining ta‘siriga e‘tibor qaratgan. U fanni klassik obyektivlik chegaralaridan chiqarib, bilishning tarixiy va madaniy shartlanganligini hisobga olishga imkon bergan. Bu bosqich fan metodologiyasini boyitgan va uning universal qonunlarga asoslangan modeldan dinamik, ko‘pqirrali tizimga aylanishi uchun shart-sharoit yaratgan.

Postnoklassik ilmiy manzara XX asr ikkinchi yarmida shakllanib, fanni ochiq, murakkab va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizimlar sifatida tahlil qilishga yo‘naltirgan. Unda tizimlilik, fanlararo metodologiya va qadriyatli yondashuv ilmiy bilish mezonlari sifatida namoyon bo‘lgan. Postnoklassik fan subyektiv va obyektiv omillarni uyg‘unlashtirib, inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirlarni chuqurroq anglash imkonini bergan.

Klassik, noklassik va postnoklassik ilmiy manzaralar qarshilik va ziddiyat orqali uzviy bog‘langan evolyutsion tizimni tashkil etadi. Bu bosqichlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki bir butun evolyutsion jarayon sifatida tahlil qilish zamonaviy ilmiy tafakkurning metodologik asosini mustahkamlaydi.

Dunyoning ilmiy manzarasi evolyutsiyasi fanning metodologik va nazariy jihatdan barqaror rivojlanishini ta‘minlab, bilishning faqat dalil va qonunlardan iborat emas, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy shart-shartlar bilan uyg‘unlashgan dinamik jarayon ekanidan dalolat beradi. Bu evolyutsion integratsiya zamonaviy ilmning universalligi, barqarorligi va insonparvarlik asoslarini ta‘minlaydi, shu bilan fan falsafasining zamonaviy metodologik yo‘nalishini shakllantiradi.

## **BIBLIOGRAFIYA**

1. Кун Т. (1962) Структура научных революций. – М.: Прогресс, 1962.

2. Лакатос И. (1970) Методология научно-исследовательских программ. – М.: Академический проект.
3. Стёпин В. С. (2000) Теоретическое знание. – М.: Прогресс-Традиция, 2000.
4. Орынбеков М. С. (2010) Философия науки и культуры. – Алматы: Ғылым.
5. Kucuradi I. (1998) Philosophy of Human Rights. – Ankara: Türkiye Felsefe Kurumu.
6. Шермухамедов Н. (2014). Фан фалсафаси. – Тошкент: Ношир.
7. Тўраев Б. Борлик. – Тошкент: Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти, 2022.
8. Ньютон И. (1687). Математик асосларда табиат фалсафасининг принциплари. – Лондон: Royal Society нашриёти, 510 б.
9. Декарт Р. (1644). Фалсафанинг асослари. – Амстердам: Elzevier нашриёти, 250 б.
10. Стёпин В. С. (2000). Теоретик билим. – Москва: Прогресс-Традиция, 1–744 б.
11. Планк М. (1900). Квант назарияси асослари. – Берлин: Springer, 1–120 б.
12. Кун Т. (1962). Илмий инқилобнинг структураси. – Чикаго: University of Chicago Press, 1–212 б.
13. Эйнштейн, А. (1916). Die Grundlage der allgemeinen Relativitätstheorie. – Берлин: Annalen der Physik, 89 б.
14. Kuhn, T. (1962). The Structure of Scientific Revolutions. – Chicago: University of Chicago Press.
15. Prigogine, I. (1980). From Being to Becoming: Time and Complexity in the Physical Sciences. – San Francisco: W. H. Freeman.
16. Heisenberg, W. (1958). Physics and Philosophy: The Revolution in Modern Science. – New York: Harper & Row.
17. Кун, Т. (1962). The Structure of Scientific Revolutions. – Chicago: University of Chicago Press. 94 б.
18. Lakatos, I. (1970). Falsification and the Methodology of Scientific Research Programmes. – Cambridge: Cambridge University Press, 112 б.
19. Feyerabend, P. (1975). Against Method. – London: Verso. 57 б.
20. Стёпин В. С. (2000). Теоретик билим. – Москва: Прогресс-Традиция, 744 б.
21. Кун Т. (1962). Илмий инқилобнинг структураси. – Чикаго: University of Chicago Press, 212 б.
22. Шермухамедова Н. (2014). Фан фалсафаси. – Тошкент: Ношир, 73–112 б.
23. Ньютон И. (1687). Математик асосларда табиат фалсафасининг принциплари. – Лондон: Royal Society нашриёти, 510 б.
24. Планк М. (1900). Квант назарияси асослари. – Берлин: Springer, 120-б.

25. Стёпин В. С. (2000). Теоретик билим. – Москва: Прогресс-Традиция, 744 б.
26. Шермухамедова Н. (2015). Фан фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети нашриёти, 73–112 б.
27. Декарт Р. (1644). Фалсафанинг асослари. Амстердам: Elzevier нашриёти, 250 б.
28. Кун Т. (1962). Илмий инкилобнинг структураси. – Чикаго: University of Chicago Press, 212 б.
29. Ньютон И. (1687). Математик асосларда табиат фалсафасининг принциплари. – Лондон: Royal Society нашриёти, 510 б.
30. Планк М. (1900). Квант назарияси асослари. – Берлин: Springer, 120 б.
31. Стёпин В. С. (2000). Теоретик билим. – Москва: Прогресс-Традиция, 744 б.
32. Шермухамедова Н. (2014). Фан фалсафаси. – Тошкент: Ношир нашриёти, 73–112 б.

**Пардаев Султонмурод**

доктор философии (PhD)

Национальный университет Узбекистана

имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

Электронный адрес: [sultonmurod121993@gmail.com](mailto:sultonmurod121993@gmail.com)

## **КЛАССИЧЕСКИЙ, НЕКЛАССИЧЕСКИЙ И ПОСТНЕКЛАССИЧЕСКИЙ ЭТАПЫ ЭВОЛЮЦИИ НАУЧНОЙ КАРТИНЫ МИРА И ИХ ВЗАИМНОЕ ВЛИЯНИЕ**

**Аннотация.** Эволюция научной картины мира представляет собой философский процесс, отражающий изменения в отношении человеческого мышления к постижению бытия. На первоначальном этапе классическая научная картина интерпретировала природу как целостную механистическую систему, подчиняющуюся строгим законам и существующую независимо от человеческого сознания, возводя объективность в ранг абсолютной ценности научного познания. В дальнейшем, в рамках неклассического этапа, было признано активное участие субъекта познания, влияние позиции наблюдателя и средств познания на получаемый результат, в результате чего научная картина стала формироваться на основе принципов относительности и вероятности. Однако в постнеклассической научной картине наука проявляется как открытая система, учитывающая сложные взаимодействия между природой, обществом и человеком, при этом формируются и деструктивные идеи, ставящие под сомнение возможность достижения универсальной и абсолютной истины. В связи с этим в данной статье анализируются классический, неклассический и постнеклассический этапы

эволюции научной картины мира, а также их влияние на современное философское мышление.

**Ключевые слова:** научная картина мира, классическая наука, неклассическая наука, постнеклассическая наука, научная рациональность, философский анализ.

**Pardayev Sultonmurod**

Doctor of Philosophy (PhD)

National University of Uzbekistan

named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

Elektron adres: sultonmurod121993@gmail.com

### **CLASSICAL, NON-CLASSICAL AND POST-NON-CLASSICAL STAGES EVOLUTION OF THE SCIENTIFIC WORLDVIEW AND THEIR INTERRELATION**

**Abstract.** The evolution of the scientific worldview is a philosophical process that reflects changes in human thought regarding the comprehension of reality. Initially, the classical scientific worldview interpreted nature as an integral mechanistic system governed by strict laws and existing independently of human consciousness, elevating objectivity to the level of an absolute value in scientific cognition. Subsequently, within the non-classical stage, the active role of the knowing subject, the position of the observer, and the influence of cognitive instruments on the results of knowledge were acknowledged, leading to the formation of a scientific worldview based on the principles of relativity and probability. However, in the post-non-classical scientific worldview, science appears as an open system that takes into account complex interactions between nature, society, and humanity, while at the same time generating destructive ideas that question the possibility of attaining universal and absolute truth. Therefore, this article analyzes the classical, non-classical, and post-non-classical stages of the evolution of the scientific worldview and their impact on contemporary philosophical thought.

**Keywords:** scientific worldview, classical science, non-classical science, post-non-classical science, scientific rationality, philosophical analysis.